

---

## 2 MINGDAN ORTIQ OVOZ TO'PLAGAN LOYIHALAR HAM G'OLIB DEB HISOBLANDI

Toshloq tumanida «Tashabbusli byudjet» loyihasi bo'yicha 2023 yil birinchi mavsumda tumandagi umumta'lim maktablaridan 10 tasi loyiha g'olibi bo'ldi. 2-,11-,21-,28-,10-,32-,40-,49-maktablar qo'shimcha bino va yopiq sport maydonlari qo'rish bo'lsa, 29-,42-maktablariga o'quv jihozlarini sotib olish uchun jami 10 milliard 790 million so'm miqdorida mablag' ajratiladi.

Ma'lumot o'rnida, "Tashabbusli byudjet" boshlangandan buyon tumandagi mavjud 50 ta maktabdan 24 ta maktabda jami 18 milliard 764 million so'mlik mablag' yutgan. Shundan 20 ta maktabda qurilish ta'mirlash uchun 15 milliard 764 million so'mlik va 4 ta maktabda 3 milliard 90 million so'mlik o'quv jihozlari uchun mablag'lar yutib olingan.

Albatta, ushbu loyihalarni hayotga tatbiq qilinishi farzandlarimizning sifatli ta'lim olishiga xizmat qiladi.

2023-04-11 13:34:51